

Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster Universitetida “Jaholatga qarshi – ma’rifat bilan” va “Inson qadr-qimmati va huquqlari tadbiri haqida

BAYONNOMA

2025-yil 24-oktyabr

Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster Universitetida **“Jaholatga qarshi – ma’rifat bilan” va “Inson qadr-qimmati va huquqlari – taraqqiyot poydevori”** mavzularida ma’rifiy uchrashuv bo’lib o’tdi.



Tadbir O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi hamkorligida tashkil etildi. Unda “Jaholatga qarshi – ma’rifat bilan” va “Inson qadr-qimmati va huquqlari – taraqqiyot poydevori” mavzularida ma’rifiy muloqot o‘tkazildi. Ma’ruzachilar O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar fakulteti dekani Farhod Erkinovich Karimov hamda mazkur akademiya dotsenti Saidaffzal Saidqambarovich Saidjalolov ma’rifatning inson hayotidagi o‘rni, jaholatning oqibatlarini, inson

huquqlari va qadr-qimmati milliy taraqqiyotning muhim omili ekanligini alohida ta'kidladilar.



Talabalar ma'ruzachilarga o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qilib, ochiq va samimiy muloqot olib bordilar. Tadbir jarayonida insonparvarlik, bag'rikenglik, ma'naviyat va ilm-fan qadriyatlari haqida fikr almashildi.



Tadbir yakunida ishtirokchilar ushbu uchrashuv yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirishga, inson huquqlari va qadriyatlariga hurmat bilan yondashuvni shakllantirishga xizmat qilishini ta'kidladilar. Tadbirda universiteti rahbariyati, professor-o'qituvchilar hamda 100 nafar birinchi bosqich talabalari qatnashdilar.

Yoshlar masalalari ma'naviy-ma'rifiy

ishlar bo'yicha birinchi prorektor

K. Kadirov

TXVU katta tyutori

F. Ismagilova